“TASDIQLAMYMAN”
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b.
_____ Z.Raxmanov
“ 24 ” 09 2025 yil

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Xalqaro aloqalar bo‘limi to‘g‘risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 73-sonli Farmoni va universitet Kengashining 29-avgustdagi 1-son yig‘ilishi bayoni bilan tasdiqlangan Xalqaro aloqalar bo‘limi nizomiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Xalqaro aloqalar bo‘limi universitetning alohida bo‘limi bo‘lib, Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor rahbarligida ish yuritadi.

1.3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Hukumat qaror va farmoyishlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining buyruqlari va me’yoriy xujjatlari, universitet Nizomi, universitetning Kengashi qarorlari va ushbu nizomga asoslangan holda ish yuritadi.

II. Bo‘limning asosiy vazifalari

2.1. Universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ixtisoslik kafedralariga kamida 15 nafar malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

2.2. Donor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlarining texnik yordam dasturlari doirasida universitetda amalga oshirilayotgan loyihalarning monitoringini olib borish va har chorakda tegishli vazirliklarga hisobot kiritish;

2.3. Hududlardagi Prezident maktablarida faoliyat yuritayotgan xorijiy mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilish hamda ularni universitet ta’lim jarayoniga jalb etish;

2.4. Xorijiy talabalar ishtirokida xalqaro fanlararo anjumanlarni o‘tkazish;

2.5. Universitet faoliyatida «Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish» axborot tizimini to‘liq joriy etishda ishtirok etish;

2.6. Universitetning ilmiy jurnalini Scopus, Web of Science yoki boshqa xalqaro ma’lumotlar bazalariga kiritish;

2.7. Universitetning Times Higher Education yoki Quacquarelli Symonds xalqaro reyting agentliklarining sohaviy, mintaqaviy yoxud tematik reytinglariga kirishini ta’minlash;

2.8. Vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda Universitetning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini akkreditatsiyadan o‘tkazish;

2.9. Universitet boshqaruv tizimini ISO:21001 (**Educational organizations — Management systems for educational organizations**) talablari asosida tashkil etish;

2.10. Universitet professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari uchun loyihalar tahlili asosida seminar, davra suhbatlarini tashkil qilish;

2.11. Universitetning xorijiy hamkorlar bilan tuzadigan bitim, shartnoma va protokollarini ko‘rib chiqish, tahlil qilish va tavsiyalar berish. Zarurat bo‘lganda hujjatlarni tegishli tashkilotlar bilan kelishish;

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi hukumati, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi nazoratidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar va xalqaro iqtisodiy aloqalarga doir qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta’minlash;

2.13. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan elchixonalar va xalqaro ta’lim tashkilotlari va jamg‘armalari bilan hamkorlikda ta’lim sohasining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha seminar, o‘quv qurollari va ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish;

2.14. Xorijiy mamlakatlar ta’lim vazirliklari, xalqaro ta’lim tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalar vakillari, chet el oliy ta’lim muassasalari delegatsiyalari bilan uchrashuvlarni tashkil qilish;

2.15. Xorijiy fuqarolarni o‘qitishdan kelib tushadigan valyuta tushumlari haqida oylik, chorak, yarim yillik va yillik hisobotlarni tayyorlab borish;

2.16. Xorijiy hamkorlar tomonidan stajirovka o‘tash, malaka oshirish, o‘quv kurslarida qatnashish, magistratura va doktoranturada tahsil olish uchun e’lon qilinadigan grantlar tanloviga universitet professor-o‘qituvchilari, talaba, magistrant va stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilarini tavsiya etish.

2.17. E’lon qilinayotgan xalqaro grantlar haqida axborot jamlab tarqatish va universitet kafedralariga loyihalar tuzishga ko‘maklashish, hamda loyiha ijrosiga bevosita ishtirok etish;

2.18. Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar haqida ma’lumotlarni to‘plash va fakultetga yetkazish. Universitetda o‘tkaziladigan anjumanlar haqida axborot tarqatish, universitet veb saytini yangilab borishga yordam ko‘rsatish;

2.19. Universitetda ta’lim va tadqiqotlar jarayonlariga yetakchi xorijiy ekspertlar va taniqli olimlarni jalb etishni kengaytirish, ushbu maqsadda turli o‘quv-ilmiy grantlar orqali o‘quv seminarlarini tashkil etish;

2.20. Xalqaro tashkilot va fondlar bilan aloqalarni o‘rnatish. Grant dasturlarini ta’lim sohasiga jalb qilish;

2.21. Xalqaro elektron ta’lim resurslariga a’zo bo‘lish va universitetning pedagog ilmiy xodimlari hamda talabalari uchun xalqaro ilmiy resurslaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berish;

2.22. Yuqori impakt faktorga ega jurnallarda ilmiy maqolalar sonini ko‘paytirish maqsadida malakali olimlar ishtirokida ilmiy jurnallarda maqola chop etish bo‘yicha master-klasslar tashkil etish, Respublikamizda va xorijda faoliyat yuritib kelayotgan nufuzli olimlarni master klasslar o‘tib berish jarayoniga jalb qilish;

2.23. Yuqori impakt faktorga ega Scopus, Nature, Web of Science jurnallarida ilmiy maqolalarni professor-oʻqituvchilar, ilmiy izlanuvchilar tomonidan muntazam chop etishni tashkil qilish;

2.24. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar universitetlarida kadrlar tayyorlashning normativ-huquqiy bazasini oʻrganish va shu asosda universitet faoliyatini takomillashtirishga imkon beruvchi meʼyorlarni ishlab chiqish;

2.25. Professor-oʻqituvchilar, ilmiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasini nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda doimiy chop etishni tashkil etish, ilmiy tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

2.26. Universitetni xalqaro darajada obroʻsini oshirish maqsadida har bir fakultet va kafedralar miqyosida shu yoʻnalishdagi jahonning eng nufuzli universitetlari, kafedralari, professor-oʻqituvchilari bilan yaqin aloqalarni oʻrnatish, ular bilan maʼlumotlar almashinuvi, oʻzaro ilmiy izlanishlar natijalari asosida hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlashni tashkil etish.

2.27. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro hamkorlikka oid normativ hujjatlarga rioya qilish;

2.28. Universitetning xalqaro hamkorlik siyosatini amalga oshirish va nazorat qilish;

2.29. Xalqaro ilmiy va taʼlim loyihalarining natijalarini baholash va hisobot tayyorlash;

2.30. Chet el universitetlari bilan shartnomalar tuzish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

2.31. Xalqaro grantlar va loyihalar boʻyicha moliyaviy hisobotlarni yuritish;

2.32. Universitetning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish;

2.33. Xalqaro hamkorlik boʻyicha professor-oʻqituvchilar va talabalarni qoʻllab-quvvatlashdan iborat.

III. Boʻlimning huquqlari

3.1. Oʻzi shaxsan masʼul boʻlgan faoliyat yoʻnalishi boʻyicha yuqori tashkilotlardan kelib tushgan hamda rektor tomonidan berilgan topshiriqlarning (hujjatlarning) mazmun-mohiyatini qoʻl ostidagi xodimlarga yetkazish, ularning ijrosini taʼminlash, faoliyat sohasi boʻyicha (barcha turdagi) hujjatlarning oʻz vaqtida va sifatli tayyorlanishini nazorat qilish, faoliyat yoʻnalishi boʻyicha barcha turdagi reja va hisobotlar bajarilishini qatʼiy nazorat qilish va oʻrnatilgan tartibda hisobotlar (axborot, maʼlumotlar) oʻz vaqtida taqdim qilinishini taʼminlash, rektorga imzoga kiritiladigan (yuqori tashkilotlarga taqdim qilinadigan) hujjatlarni shaxsan tekshirish va imzolash;

3.2. Universitetning xalqaro aloqalarini rivojlantirish boʻyicha strategiyalar ishlab chiqish;

3.3. Chet el universitetlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyish;

3.4. Xalqaro grantlar va loyihalarni jalb qilish va boshqarish;

3.5. Talabalar va professor-oʻqituvchilar uchun xalqaro almashinuv dasturlarini tashkil etish;

3.6. Xorijiy ilmiy konferensiyalar va seminarlarda universitet vakillarining ishtirokini taʼminlash;

3.7. Universitetning xalqaro reytingini oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish;

3.8. Chet el investitsiyalarini jalb qilish va xalqaro ilmiy loyihalarni muvofiqlashtirishadi.

IV. Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘ining huquqlari va vazifalari:

4.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasining ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi qarorlari va Universitet Ustavi va ichki nizomlariga tayangan holda ish olib borish.

4.2. Xalqaro hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

4.3. Xorijiy universitetlar, ilmiy markazlar va fondlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish;

4.4. Universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ixtisoslik kafedralariga kamida 15 nafar malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

4.5. Akademik mobillik, ikki diplomli dasturlar, yozgi/qishki maktablar va inklyuziv ta’lim loyihalarini muvofiqlashtirish;

4.6. Xorijiy delegatsiyalarni qabul qilish va protokol asosida uchrashuvlarni tashkil etish;

4.7. Xorijiy talabalar ishtirokida xalqaro fanlararo anjumanlarni o‘tkazish;

4.8. Universitet faoliyatida «Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish» axborot tizimini to‘liq joriy etishda ishtirok etish;

4.9. Xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

4.10. Xalqaro grantlar, loyihalar va shartnomalar bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash;

4.11. Universitetning xalqaro reytinglarda ishtirokini ta’minlash va tahlil qilish;

4.12. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha hisobotlar tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish;

4.13. Universitet professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari uchun loyihalar tahlili asosida seminar, davra suhbatlarini tashkil qilish;

4.14. Universitetning xorijiy hamkorlar bilan tuzadigan bitim, shartnoma va protokollarini ko‘rib chiqish, tahlil qilish va tavsiyalar berish. Zarurat bo‘lganda hujjatlarni tegishli tashkilotlar bilan kelishish;

4.15. Bo‘lim xodimlari ishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

4.16. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish va takliflar kiritish;

4.17. Universitet bo‘limlaridan zarur ma’lumot va hujjatlarni talab qilish;

4.18. Chet el universitetlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

4.19. Xalqaro grantlar va loyihalarni jalb qilish va boshqarish;

4.20. Xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzishda ishtirok etish;

4.21. Xalqaro tadbirlar va konferensiyalarda universitet nomidan qatnashish;

4.22. Universitetning xalqaro reytingini oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish;

4.23. Bo‘lim faoliyatiga oid yig‘ilishlarda fikr bildirish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etish.

4.24. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro hamkorlikka oid normativ hujjatlarga rioya qilish;

4.25. Xalqaro hamkorlik faoliyatining qonunchilikka muvofiqligi va sifatli tashkil etilishiga;

4.26. Xorijiy delegatsiyalar bilan ishlashda protokol va axloqiy me’yorlarga rioya etilishiga;

4.27. Xalqaro loyihalar va grantlar hujjatlarining to‘g‘riligiga va muddatlarda bajarilishiga;

4.28. Xalqaro grantlar va loyihalar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni yuritish;

4.29. Maxfiy ma’lumotlarning saqlanishi va noto‘g‘ri foydalanilmasligiga;

4.30. Xalqaro aloqalar bo‘limi xodimlarining faoliyati va topshiriqlarning bajarilishiga rahbariyat oldida javob berishadi.

V. Xalqaro aloqalar bo‘limi uslubchisining huquqlari va vazifalari

5.1. Bo‘lim faoliyatiga taalluqli nizom, yo‘riqnomalar va me’yoriy hujjatlarni, universitet Ustavi, ichki mehnat tartib-qoidalari, bo‘lim faoliyatiga oid boshqa me’yoriy hujjatlarning ijrosini ichki nizomlariga tayangan holda ish olib borish.

5.2. Chet ellik fuqarolarni o‘qituvchi, talaba, magistrant, doktorant, stajyor va ularning oila a’zolarini universitetga o‘qish va ishlashga qabul qilish bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish;

5.3. Chet el fuqarolarining har bir yo‘nalish bo‘yicha kirish va chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish;

5.4. Chet el fuqarolarining shartnomalarini rasmiylashtirish;

5.5. Chet ellik mehmonlarni kutib olish va joylashtirishni tashkil qilish;

5.6. universitetga tashrif buyurayotgan chet ellik fuqarolar uchun O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi konsullik boshqarmasi me’yoriy hujjatlar, talablar va qoidalardan kelib chiqqan holda taklifnomalarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

5.7. universitetga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining pasportlarini, vizalarini, ro‘yxatdan o‘tganliklarini O‘zR IIVning me’yoriy hujjatlari asosida qayd etib borish;

5.8. Chet el fuqarolarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda amaliy yordam ko‘rsatish;

5.9. universitetda tahsil olgan chet el fuqarolari uchun maxsus diplom blankalarini rasmiylashtirish va talabalarga topshirish;

5.10. Chet el safariga ketayotgan universitet xodimlarining hujjatlarini rasmiylashtirish, chet el safarlariga taalluqli buyruqlarni rasmiylashtirish;

5.11. Xalqaro hamkorlik shartnomalari doirasida tashrif buyurayotgan chet el delegatsiyalari tashriflarini tashkillashtirishda qatnashish;

5.12. Chet el universitetlari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari doirasida talaba, magistrant, doktorantlar, yosh olimlar, professor-o‘qituvchilar hujjatlari rasmiylashtirishini amalga oshirish;

5.13. Xalqaro tadbirlarni (uchrashuvlar, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlar va h.k.) o‘tkazilishida qatnashish;

5.14. Xodimlari va ta’lim oluvchilarning chet el safarlari bo‘yicha hisobotlarini tayyorlab borish;

5.15. Bo‘lim boshlig‘i tomonidan berilgan boshqa topshiriqlarni bajarish;

5.16. Xalqaro hamkorlik masalalarida tashabbus ko‘rsatish va takliflar kiritish;

5.17. Tashqi tashkilotlar bilan muzokara olib borishda universitet nomidan qatnashish;

5.18. Loyihalar, grantlar va memorandumlar matnini tayyorlashda muvofiqlashtiruvchi rolni bajarish;

5.19. Universitet rahbariyatidan metodik ko‘rsatma va zaruriy resurslarni so‘rash huquqiga ega bo‘lish;

5.20. Kasbiy malakani oshirish kurslarida qatnashishdan iborat.

VI. Bo‘limning tuzilmasi va boshqaruvi

6.1.Bo‘limga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi, u universitet rektori tomonidan tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

6.2.Bo‘lim boshlig‘i bo‘lim faoliyati uchun shaxsan javob beradi va uning samaradorligini ta'minlaydi.

6.3.Bo‘limda 3 nafar uslubchi faoliyat olib boradi.

6.4.Har bir xodimning vazifa va majburiyatlari lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

6.5.Bo‘lim universitetning barcha fakultetlari, kafedralari va markazlari bilan hamkorlikda ish yuritadi.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish belgilangan tartibda universitet qarori bilan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti universitet Kengashining 2025-yil “___” __-avgustdagi __-sonli yig‘ilishi qarori asosida tasdiqlangan.